

Virtual axborot muhitida tarbiyalanuvchilar bilan ta'lim jaarayonini tashkil etish

**NAVOIY viloyati Navoiy shahar 27-DMTT
Yuldoshova Moxigul Komiljonovna**

Maktabgacha ta'lim tizim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi , eng asosiy bo'g'inidir. Shu bois bolalarning sog'lom, bilimli bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29-dekabrda PQ – 2707 sonli “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida” gi qarori shu sohada olib borilayotgan davlat islohotlarini yuqori darajada borayotganligini ko'rsatadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta'kidlaganidek, “Maktabgacha ta'lim – ertangi kunimizga zamin” ekanligi, demak, har tomonlama yetuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengishi, biz ko'zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Ushbu talab asosida mamlakatimizda jismonan sog'lom, bilim va tafakkuri o'tkir, ma'naviyatli, aniq kasb va mutaxassislikka ega, g'oyaviy sobitqadam farzandlar, ya'ni barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 30 sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida: 2017 yil 30 sentabrdagi Prezident qarori PQ-3305 asosida Maktabgacha ta'lim Vazirligi tashkil etildi va maktabgacha ta'limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Endilikda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash, bugun hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji, fuqarolarning maktabgacha ta'lim tizimiga bo'lgan qiziqishlarining yuqoriligi, sohada davlat va xususiy sektorning uyg'unlashuvi, maktabgacha ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar bolalarning sog'lom va barkamol bo'lib ulg'ayishiga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi qarorlar ota-onalardan tortib, mazkur sohaga mutasaddi bo'lgan barcha tashkilotlar, ularning xodimlaridan bola tarbiyasi hamda uning ta'lim olishiga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvni talab etadi . Bunda avvalo maktabgacha va milliy pedagogika

an'analari, ilg'or horijiy tajribalarga asoslangan holda ish tutish kutilayotgan samarani beradi. Bularning barchasi yoshlarda yangicha tafakkurni, milliy, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan qolmasligi hamda hozirgi yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazuvchi vorislar ekanligi ayni haqiqatdir. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan insonlar, ya'ni oilada – otalar, keng jamoatchilik, ta'lim tashkilotlarida – o'qituvchi va murabbiylar kelgusi avlod barkamolligi yo'lida o'g'il-qizlarimizning ulug' ajdodlarimizga munosib bo'lishlari uchun mas'uldirlar.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari – bu media, til hamda madaniyatdir. Aynan, biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Dunyoda mediakompetentlikning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YuNESKO tashkilotining tavsiyalarida alohida ta'kidlanib, pedagoglarni mediakompetentligini rivojlanishini qo'llab-quvvatlangan. Mediakompetentlik umumiy ko'rinishda shaxsning turli ko'rinishi, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda medianing faoliyati murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasi ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytib o'tganimizdek biror bir ishni sifatli va samarali amalga oshirishimiz uchun biz albatta tegishli vositalardan foydalanamiz. Masalan, tuproqqa ishlov berishda, uni yumshatish vositalari, bular tuvakdagi gul uchun kichik yumshatgich belkurakchalar bo'lsa, bog'dagi tuproqqa ishlov berishda ketmon va belkuraklardan, bir necha gektarlik ekinzor dalalarga esa traktorlardan foydalanamiz. Endi tasavvur qiling, agar vosita bo'lmasa ushbu ishlarni amalga oshirish qanchalik qiyin bo'lardi, hatto ba'zilarini amalga oshirish imkoni ham bo'lmasdi. Xuddi shu kabi mahsulot tayyorlashda dastgohlardan, yuk tashishda transportlardan, ommaga axborot yetkazishda ommaviy axborot vositalaridan va h.k. foydalanamiz. Xuddi shuningdek ta'lim berishda bolalar bilan muloqotni tashkil etishda xam didaktik vositalardan foydalanamiz. Pedagogika kursidan ma'lumki didaktika, ya'ni grekcha 'didaktos' so'zidan olingan bo'lib, ta'lim bermok yoki ta'lim nazariyasi degan ma'noni anglatishini esga olishning o'zi kifoya. Mashg'ulotga quyudagilar kerak bo'ladi;

ko'rgazma tarqatma, materiallar, o'quv adabiyotlari va namunaviy materiallar, slaydlar. foto, audio, video materialelektron material. O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarga beriladigan, namoyish qilinadigan, bajarib ko'rsatiladigan va shunga o'xshash barcha turdagi o'quv axborotlarini biz didaktik materiallar deymiz. Ularni qachon va qaysi maqsadda qo'llashimizga qarab alohida guruxlarga ajratib chiqamiz. Ushbu materiallarni qo'llash va tayyorlashda didaktik vositalardan foydalanamiz. Masalan, plakatlar, diapozitivlar, fotosuratlar, audio, televizion va videomateriallar, axborot texnologiyalari asosidagi materiallar va h.k. O'z navbatida vositalarni tuzilishi, ishlash tamoyili va didaktik imkoniyatlariga qarab tasniflaymiz. Shundan kelib chiqqan holda biz mashg'ulot davomida bir necha turdagi didaktik materiallarni qo'llaymiz, buning uchun tegishli didaktik vositalardan foydalanamiz. Bular esa birgalikda shu mashg'ulot uchun tuzilgan didaktik vositalar majmuasi hisoblanadi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim bolalarni kichikligidanoq har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Bu mas'uliyatni to'g'ri his etgan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsga puxta tayyorlangan holda didaktik materiallardan - ko'rsatmali qurollardan foydalanib mashgulot o'tsa, bolalarga bilim berish ancha osonlashadi. Chunki tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari, 35-45 soniyalik mashg'ulotda ko'pi bilan 10-15 daqiqagacha diqqatlarini to'play oladilar, shundan so'ng beixtiyor ularning xayollari bo'linadi. Shuni to'g'ri his etgan tarbiyachisi mashg'ulotni bir xil andozada o'tmay, balki rang-barang usullar va uslublar asosida olib borsagina, unda maqsadga muvofiq turli didaktik materiallardan foydalansagina kutilgan natijaga erishadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mashg'ulot davomida tarbiyalanuvchilarning kompyuter oldida 15 daqiqadan ortiq o'tirishi mumkin emasligi e'tiborga olinishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, 'Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari' da ham bolaning kompyuterda shug'ullanishi 15-20 daqiqa etib belgilangan. 15 daqiqaga rejalashtirilgan material o'tib bo'lingach, 15-20 daqiqali oraliq bosqichi o'tkazilishi lozim. Oraliq bosqichida tarbiyalanuvchilarning toliqishini hisobga olib, umumiy guruhli mashg'ulot o'tkazilishi nazarda tutilgan.. Kompyutersiz o'tkaziladigan ushbu oraliq mashg'ulotlarda, mavzuga tegishli og'zaki savol-javoblar, topishmoqlar, turli mazmundagi o'yinlar, amaliy tadbirlar o'tkaziladi. Shuningdek, she'r, ashula aytiladi va jismoniy mashqlar bajariladi. Jumladan, ko'z toliqishini bartaraf etuvchi ko'z gimnastikasi - bir necha daqiqa davomida ko'zni ochib yumish, kabilar kiradi. Oraliq bosqichdan keyin yana 15 daqiqali asosiy mashg'ulot tashkillashtiriladi. Yangi bilim berishda bevosita dialog metodidan foydalanishni maktabga tayyorlov guruhlari bolalarining yoshlari (6-7), ularning fikrlash darajalari va boshqa xususiyatlarini e'tiborga olish ahamiyatlidir. Bevosita dialog metodidan foydalanilgan holda kompyuter didaktik vositalar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Virtual axborot muhitida kompyuter bilan (bilvosita) dialog metodining algortmi:

1. Kompyuter tarbiyalanuvchiga – topshiriq, savol, mashqni bajarish yoki o'yinni bajarishni buyuradi.
2. Bola (tarbiyalanuvchi) topshiriqni amalga oshiradi.
3. Bunda 'aqlli' kompyuter topshiriq bajarilishining to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatadi.
4. Agar noto'g'ri bo'lsa, takroran harakar qiladi.
5. So'nggi qisimda kompyuter bolaning natijaviy bilimni namaoyish etadi.

Kompyuterda ishlovchi bola mashqlarni va kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, maqsadiga erisha oladi, chunki kompyuter – 'bag'ri keng' va, sabrli uskunadir. Bola xato qilgan taqdirda ham xatoni o'zi tuzatgunga qadar hech kim unga tanbeh bermasdan, ogohlantirib boradi xolos. Lekin bolalar kompyuterda mustaqil ishlagan hollarda ham ularning harakatlari doimo tarbiyachi kuzatuvida bo'lishi nazarda tutilgan. Bevosita dialog asosida o'tkazilgan mashg'ulotda 15 daqiqa uzluksiz monitor ekraniga qaragan va bolalar kompyuterdan uzoqroq 'sichqoncha' va klaviatukabellarining uzunligi masofasida joylashgan holda bolalarning 95 foizi 15–20 daqiqadan so'ng toliqishlari yo'qolganini aytadilar. Multimediali kompyuter texnologiyasining ta'lim-tarbiya berish metodikasini bayon qilishdan oldin uning quyidagi ikki jihatiga e'tibor qaratiladi:

- 1) agar u yoki bu multimedia vositasi tarbiyalanuvchilarga bayon etib borilmasdan namoyish etilsa, u oddiy multfilimdan farqi qolmadi.
- 2) tarbiyachi multimedia vositasini namoyish etish davomida uni tahlil etib (tushuntirib, bayon etib) borsa, ta'lim jarayonini aks ettirib, multimedia texnologiyasiga aylanib boradi.

Agar MTTdagi kompyuterlar soni 5–6 dan ortiq bo'lsa, mashg'ulot frontal ravishda, bitta bo'lsa, undan navbatma-navbat foydalanilgan holda o'tkazilishi ko'zda tutiladi. Bunday holda taklif etilgan birinchi tarbiyalanuvchi tarbiyachi tomonidan berilgan savolga to'g'ri javob bera olmasa, ikkinchisidan so'rab boriladi. MTT larda proyektor va ekran bo'lsa, tarbiyachi mashg'ulotni 'kompyuter-elektron doska' usulidan foydalanib olib borishi maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulot yakunida uyga topshiriqlar tayinlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nig'matov A.N. Ekologiya / Asosiy atama va iboralarning izoxli lugati. - T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001.
2. Ziyomuhamedov B. /Ekologiya va ma'naviyat.- T.: «Mehnat» nashriyoti, 1997.
3. To'xtaev A.S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. - T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001.

4. O.Xasanboeva va boshqalar/ Pedagogika tarixi. Qo'llanma-T.: "O'qituvchi" 1997.
5. M. Umarova /Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.
6. Sh.A.Sodiqova, M.A.Rasulxo'jaeva /Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.-T.: "Fan va texnologiyalar" 2013.